

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 85 (1146), 2024-yil 3-may, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZARO ISHONCH VA HURMAT RUHI, BIR-BIRINI QO‘LLAB-QUVVATLASH TAMOYILI UZOQ MUDDATLI HAMKORLIKNING MUSTAHKAM USTUNI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-may kuni Xalqaro kongress markazida uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etdi.



Tadbirda, shuningdek, Turkiya Respublikasi vitse-prezidenti Javdat Yilmaz, Singapur Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng, Qirg‘iziston Bosh vaziri Aqilbek Japarov, Saudiya Arabistoni energetika vaziri Abdulaziz bin Salmon Ol Saud, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso, BMT Bosh kotibi o‘rinbosari Tatyana Molchan, OPEC Xalqaro taraqqiyot jamg‘armasi prezidenti Abdulhamid Al-

Xalifa va boshqalar qatnashdi. Umuman, forumga dunyoning 93 mamlakatidan ikki yarim ming nafardan ziyod xorijiy mehmon tashrif buyurdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilayotgan xalqaro forum o‘tgan uch yil davomida ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg‘or g‘oya va yondashuvlarni ishlab

chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Davlatimiz rahbari so‘zining avvalida majlis ishtirokchilarini qutlab, forum mamlakatimizda ortga qaytmas tus olgan islohotlarga, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga bo‘lgan ulkan qiziqishdan dalolat berishini ta’kidladi. Bugungi anjuman global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror



riyojlanish yo‘lida xavf va tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to‘g‘ri kelayotgani qayd etildi. Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi — vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko‘rsatmoqda.

Prezidentimiz jahon iqtisodiyotining o‘shir sur‘atlari so‘nggi uch yil davomida pasayayotganini ko‘rsatib o‘tdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023-yilda rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamaydi. — Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi

tushunamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Biroq bir o‘zgarimas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o‘tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O‘zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo‘lib qolaveradi.

Davomi 2-beta

XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARI BILAN UCHRASHUVLAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2-may kuni Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Singapur Respublikasi Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Aqilbek Japarov, Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud boshchiligidagi delegatsiya, Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyot vaziri Abdulla bin Al Marriy boshchiligidagi delegatsiya, O‘mon Sultonligi savdo, sanoat va investitsiyalarga ko‘maklashish vaziri Qays bin Muhammad al-Yusuf, BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, Yevropa iqtisodiy komissiyasi Ijrochi kotibi Tatyana Molchan va Rossiya delegatsiyasiga boshchilik qilayotgan Rossiya Federatsiyasi Prezidenti yordamchisi Maksim Oreshkinni qabul qildi.



Singapur Respublikasi Parlamenti Spikeri Sia Kian Peng subhat avvalida mamlakatimiz yetakchisiga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi va forum yuksak darajada tashkil etilganini e’tirof etdi. O‘tgan bir yilda O‘zbekiston — Singapur munosabatlarida ulkan natijalarga erishilgani

mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki davlat tashrifi muvaffaqiyatli o‘tkazildi, tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma loyihalar soni, shu jumladan, to‘qimachilik va kimyo, qishloq xo‘jaligi, logistika va boshqa tarmoqlarda iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg‘or g‘oya va yondashuvlarni ishlab

chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi — vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko‘rsatmoqda. Bugungi anjuman global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror



O‘zbekiston yetakchisiga Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarovning samimiy salomini yetkazdi. O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish, savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport va logistika sohalarida hamkorlikni kengaytirish, hududlararo

aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko‘rib chiqildi. Qambarota GES-1 va “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish loyihalarining amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratildi. Bo‘lajak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida ko‘p qirrali sheriklikning

yangi kun tartibini shakllantirish masalalari ham muhokama qilindi. Saudiya Arabistoni energetika vaziri shahzoda Abdulaziz bin Salmon Ol Saud uchrashuv avvalida O‘zbekiston yetakchisiga Podshoh Salmon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Davomi 2-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli forum ishtirokchilari! Xonimlar va janoblari! Avvalambor, Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etayotgan siz, azizlarni chin qalbimdan samimiy qutlashga ijozat bergaysiz. Shuni mamnuniyat bilan ta’kidlashni istardimki, yildan-yilga yaxshi an’anaga aylanib borayotgan ushbu format doirasida yurtimizda dunyoning barcha qit’alaridan yangidan-yangi ishonchli hamkorlarimiz jam bo‘lmoqda. O‘tgan uch yil davomida mazkur forum ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish,

ilg‘or g‘oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi. Bugungi tadbirimizga 93 ta davlatdan ikki yarim mingdan ortiq xorijiy mehmonlar kelgani ham forumning ahamiyati tobora ortib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda ortga qaytmas tus olgan islohotlarga, o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga bo‘lgan ulkan qiziqishdan dalolat beradi. Hurmatli forum qatnashchilari! Bugungi anjumanimiz global geosiyosiy va iqtisodiy muammolar avj olayotgan, barqaror rivojlanish yo‘lida xavf va

tahdidlar kuchayib borayotgan davrga to‘g‘ri kelmoqda. Dunyo tartibotida chuqur transformatsiya jarayonlari kechmoqda. Tovar va xizmatlarni yetkazib berish zanjirlaridagi uzilishlar, xalqaro savdning pasayishi, investitsiya oqimlarining kamayishi, iqlim ofatlarining kuchayishi — vaziyat naqadar beqaror va zaif ekanini yaqqol ko‘rsatmoqda. Jahon iqtisodiyotining o‘shir sur‘atlari so‘nggi uch yil davomida pasaymoqda. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq tendensiyalar ham kutilgan umidlarni oqlamayapti. 2023-yilda

rivojlanayotgan davlatlarga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmi 9 foizga kamaydi. Albatta, biz bugun jahonda investorlar uchun mislsiz kurash ketayotganini yaxshi tushunamiz. Biroq bir o‘zgarimas haqiqat tobora oydinlashmoqda. Hech bir mamlakat bu kabi o‘tkir muammolarni yakka holda hal eta olmaydi. O‘zaro ishonch va hurmat ruhi, bir-birini qo‘llab-quvvatlash tamoyili uzoq muddatli hamkorlikning mustahkam ustuni bo‘lib qolaveradi. Hurmatli xonimlar va janoblari! Biz mamlakatimizda investitsiya va biznes

muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat’iy qadamlar tashladik. Aynan shu bois, har bir sarmoyador o‘zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiryapmiz. Sizlar yaxshi bilasiz, bundan yetti yil muqaddam biz uchun oson bo‘lmagan, lekin katta marralarni ko‘zlagan tizimli islohotlarni boshlagan edik. Biz iqtisodiyotni erkinlashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirishni asosiy maqsadimiz etib belgiladik.

So‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘stdi. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha bu o‘shir 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag‘lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

Davomi 2-beta



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING UCHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan yilning o‘zida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar ko‘paydi. Shu o‘rinda energetika sohasida “ACWA Power”, “Masdar”, “Total Eren”, “Volitalia”, “Çalık” va “Aksa”, kimyo sanoatida “Air Products”, “Indorama” va “CAMCE”, tog‘-kon va metallurgiyada — “Orano” va “DANIELI”, avtomobilsozlik va elektrotexnika yo‘nalishlarida “BYD”, “Kia” va “Samsung”, qurilish sohasida “Koc” va “KNAUF” kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihalari ishga tushirilgani va yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratilgani katta mamnuniyat bilan ta’kidlanmoqchiman.

Bugungi forum doirasida dunyoning ilg‘or kompaniyalari hisoblangan “Linde”, “Oрасcom”, “DataVolt”, “Bonafarm”, “PASHA Holding” va boshqa sherkatlarimiz ishtirokida yangi yirik loyihalarga start beriladi.

Fursatdan foydalanib, bu ishga o‘zining munosib hissasini qo‘shayotgan xorijiy investorlarga, barcha hamkorlarimizga o‘zimizning chuqur va samimiy minnatdorchiligimni izhor etaman.

Biz tadbirkorlik va biznesni qo‘llab-quvvatlash maqsadida boshqa ustuvor yo‘nalishlarda qator aniq choralarini ishlab chiqqanmiz.

Endilikda xorijiy sarmoyadorlar aksiyalardan olinayotgan dividendlar bo‘yicha soliqlardan uch yil muddatga ozod etildi.

Yaqinda Xususiyashtirish to‘g‘risidagi qonuni qabul qildik. 250 ta yirik korxonaning davlat ulushini va salkam 1000 ta ko‘chmas mulk obyektlarini sotish, 12 ta korxonaning aksiyalarini fond bozorlarida birlamchi ommaviy joylashtirish (IPO) uchun yangi dastur ham ishga tushirildi.

Tadbirkorlar barqarorligi reytingi joriy etildi. Yuqori reytingga ega tadbirkorlik subyektlari uchun soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi.

Energetika yo‘nalishidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirish tajribasini ijtimoiy va boshqa infratuzilma sohalorida ham keng taqbiq etishni rejalashtirganimiz. Xususan, Xitoyning “CITIC” va “CAMCE” kompaniyalari bilan irrigatsiya va avtomobil yo‘llari, Fransiyaning “Suez” va “Veolia” kompaniyalari

bilan ichimlik suvi ta‘minoti, “Inter Health” va “Pure Health” arab kompaniyalari bilan zamonaviy tibbiyot muassasalarini qurish loyihalari ishlab chiqilmoqda.

Sanoat zonalarini infratuzilmasini budget mablag‘lari hisobidan rivojlantirishga muhim ahamiyat qaratmoqdamiz. Tadbirkorlarga yer ajratishning zamonaviy shaffof tamoyillari — ya‘ni auktsion savdo tizimi yo‘lga qo‘yildi. Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish doirasida qonunchilikni uyg‘unlashtirishga qaratilgan 60 dan ortiq normativ hujjatlar qabul qilindi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzilib, 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiya ishlab chiqilmoqda. O‘tgan yili Toshkentda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha xalqaro tadbirlarni o‘tkazdik.

Nizolarni adolati hal etish maqsadida Toshkent xalqaro arbitraj markazi muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Uning tarkibida Amerika Qo‘shma Shtatlari, Buyuk Britaniya, Italiya, Shvetsiya, Xitoy, Birlashgan Arab Amirliklari kabi mamlakatlardan 90 dan ortiq nufuzli hakamlar o‘rin olgan.

Investorlar uchun yana bir muhim ko‘rsatkich. Oxirgi yetti yilda oliy ta‘lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga oshdi, oliy o‘quv yurtlari soni 200 tadan ortdi.

O‘zbekistonda 90 dan ortiq davlatlarga vizasiz rejim joriy etildi.

Hurmatli forum ishtirokchilari! Bizning asosiy maqsadimiz — O‘zbekistonni xorijiy investorlar uchun ishonchli va uzoq muddatli hamkorga aylantirishdir.

Davlatimiz bozor munosabatlarini rivojlantirishni, investorlar huquqlari ishonchli himoya qilinishini, qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishni, halol raqobat uchun yanada keng shart-sharoitlar yaratishni, xususiy mulk daxlsizligi va sud tizimining mustaqilligi ta‘minlanishini o‘z zimmasiga olmoqda.

Biz bu tamoyillarni o‘tgan yili umumxalq referendumida qabul qilingan yangi Konstitutsiyamizda qat‘iy muhrlab qo‘ydik.

Sarmoyadorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish maqsadida bugun sizlarga qator aniq takliflarni bildirmoqchiman.

Birinchi, yangi tahrirdagi “Investitsiyalar to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilamiz. Ushbu hujjat Jahon savdo tashkiloti tartib-qoidalari va standartlariga muvofiq ishlab chiqildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga bu boradagi yaqin hamkorligi uchun alohida minnatdorchilik izhor etmoqchiman.

Ikkinchidan, tez orada mamlakatimizda Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi huzurida Xalqaro tijorat sudi ish boshlaydi. Ushbu sud O‘zbekiston sud-huquq tizimida alohida o‘ringa ega bo‘ladi. Buning uchun yaqin muddatlarda maxsus qonuni qabul qilamiz. Protessual kodekslarga ushbu xalqaro tijorat sudi qarorlari to‘laonli ijro etilishiga oid me‘yorlarni ham kiritamiz. Uchinchidan, yaqin vaqtda sanoat zonalarini tizimida mulqo yangicha yondashuvlarni joriy etamiz.

Yuqori texnologik loyihalarni amalga oshirish uchun investorlarga yanada qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Sanoat zonalarini boshqarishda xususiy operatorlar, jumladan, yuqori malakali xorijiy kompaniyalarni faol jalb qilish amaliyoti kengaytiriladi. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyat muddatlari bo‘yicha cheklolvar ham bekor qilinadi.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun yerlarni ijaraga berish muddati 25 yildan 49 yilgacha, ya‘ni ikki barobar uzaytiriladi. Bunda, qonunlar bilan kafolatlangan amaldagi imtiyoz va preferensiyalar to‘liq saqlab qolinadi.

Bu masalalarning barchasini ertaga Xorijiy investorlar kengashining navbatdagi yig‘ilishida batafsil muhokama qilamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Tizimli islohotlarni davom ettirish, kuchli va farovon davlat qurish maqsadida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini qabul qildik. Bu muhim hujjatda barqaror iqtisodiy o‘shishga erishish, ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimlarini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta‘minlash bo‘yicha 100 ta aniq vazifa o‘z aksini topgan.

2030-yilga borib, aholi daromadlarini ikki barobar oshirish va ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishni maqsad qilib qo‘yganimiz.

Iqtisodiyotda chuqur transformatsiya jarayonlarini, qulay investitsiya va biznes muhiti hamda sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatni yaratishni izchil davom ettiramiz.

Shu o‘rinda o‘zaro manfaatli hamkorligimizni kengaytirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarga alohida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchi yo‘nalish: “yashil” energetika. Energetika tamog‘i samaradorligini oshirish butun mintaqamiz uchun dolzarbdir. Bu borada mamlakatimizda 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda.

Biz 2030-yilgacha 20 gigavatt dan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazishni maqsad qilganimiz.

O‘tgan yilning o‘zida 1,4 gigavatt quvvatdagi yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarini strategik sherkatlarimiz bo‘lgan “Masdar”, “Gezhouba”, “China Energy” kompaniyalari bilan ishga tushirdik. Shuningdek, “ACWA Power” bilan “yashil vodorod” ishlab chiqarish loyihasini ham boshlab yubordik.

Eng e‘tiborli jihati — ushbu muhim loyihalarda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Bugun forum doirasida siz, investorlarimiz uchun qo‘shni Qirg‘iziston va Tojikistondagi gidroelektr stansiyalarini birgalikda qurish loyihalari taqdimotini o‘tkazamiz. Ushbu yo‘nalishda barcha davlatlar yetakchi kompaniyalarini ochiq muloqot va amaliy hamkorlikka taklif etamiz.

Ikkinchi yo‘nalish: bank-moliya sohasi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda ko‘plab xususiy banklar ochildi. Bozorimizga Yevropaning yetakchi banklari kirib keldi. Qator raqamli banklar o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda.

Forum doirasida Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan O‘zbekistonning yirik banklaridan biri bo‘lgan “Asakabank”ni xususiyashtirish bo‘yicha bitim imzolandi. Shuningdek, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki bilan boshqa yirik banklarimizning transformatsiyasi va xususiyashtirish jarayonlari faol olib borilmoqda.

Moliyaviy resurslarga talabni qondirish uchun kapital bozorini rivojlantirish bo‘yicha yondashuvlar qayta ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekistonda xalqaro moliyalashtirish instrumentlarini rivojlantirish ustida ish olib borilmoqda. Xorijiy sarmoyalar oqimi bir necha barobar ortishi, korporativ boshqaruv sifati

oshishi, yangi yetakchi bank-moliya institutlari kirib kelishini kutib qolamiz.

Uchinchi yo‘nalish: foydali qazilmalar. O‘zbekiston — mineral resurslar va muhim metallarning katta bazasiga ega mamlakatdir. Yurtimizda oltin, mis, volfram, kumush, uranning ulkan zaxiralari mavjud. Nodir va noyob mineralar qatorida litiy, magniy, molibden, germaniy, vanadiy va indiy kabi 30 dan ortiq metallarning zaxiralari alohida e‘tibor qaratishni istardim.

O‘tgan oyda Yevropa Ittifoqi bilan o‘ta muhim xomashyo sohasida strategik hamkorlik o‘rnatildi. Amerika Qo‘shma Shtatlari va Buyuk Britaniya bilan ham shunday bitim ustida ish olib boryapmiz.

Bu borada zamonaviy xalqaro tajriba asosida yangi tahrirdagi “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinadi. Shu o‘rinda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga bu ishdagi salmoqli hisssasi uchun alohida rahmat aytmog‘chiman.

Strategik xomashyolarni chuqur qayta ishlab va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish uchun yetakchi kompaniyalarni O‘zbekistonga taklif etamiz.

To‘rtinchi yo‘nalish: mamlakatning IT transformatsiyasi. Bir yil ichida IT xizmatlar va dasturiy mahsulotlar eksporti ikki barobar oshdi. Kelajakda bu ko‘rsatkichni 5 milliard dollarga yetkazishni reja qilganimiz.

IT-park rezidentlari soni o‘n barobar ko‘paydi, kelgusida 100 ming yangi ishchi o‘rni yaratiladi. Bundan tashqari, uning bazasida xorijiy kompaniyalar uchun Raqamli texnologiyalar xalqaro markazi yaratilmoqda.

Bu borada Saudiya Arabistonining “Data Volt” kompaniyasi bilan “yashil” energiya asosida ishlaydigan “Ma‘lumotlar markazi”ni barpo etyapmiz. Bu mamlakatimizni raqamli iqtisodiyotga o‘tkazish va sun‘iy intellekt asosida texnologiyalarini joriy etishga ulkan turki bag‘ishlaydi, deb hisoblaymiz.

Beshinchi yo‘nalish: transport infratuzilmasini rivojlantirish. Qulay va zamonaviy transport tizimlarini yaratish vazifasiga ustuvor e‘tibor qaratyapmiz.

Temir yo‘l sohasida tub islohotlar olib borilmoqda, tarmoqqa xususiy investorlarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Pullik avtomobil va tezyurar temir yo‘llarni

qurish bo‘yicha qo‘shma loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Toshkent, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarini rivojlantirish va yangilarni qurish bo‘yicha salohiyatli xorijiy investorlar bilan hamkorlik loyihalari tayyorlanmoqda.

Ma‘lumki, biz xorijiy sherkatlarimiz bilan birgalikda Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston va O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston temir yo‘llarini qurish bo‘yicha dastlabki ishlarni boshladik.

Ushbu strategik loyihalar mintaqadagi geoiqtisodiy vaziyatni butunlay o‘zgartirib, Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G‘arb bilan bog‘laydigan global tranzit markaziga aylantiradi.

Biz investorlarni va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga, Buyuk Ipak yo‘lini zamonaviy asosida qayta tiklashga taklif qilamiz.

Aziz do‘stlar! Yangi O‘zbekiston — beqiyos imkoniyatlarga ega, adolati va jadal rivojlanayotgan dunyoviy mamlakatdir.

Biz har kuni hayotga tabiiq etayotgan ulkan g‘oya va buyuk orzularimizning asosiy ilhom manbai — bu, eng avvalo, mehnatkash va olibanog‘ xalqimizdir.

Shuni alohida ta‘kidlashni istar edimki, bugun bu yerda yig‘ilgan investorlar o‘zlarining eng ilg‘or texnologiya va tajribalari, yangi taklif va yondashuvlari bilan bizni faqat olg‘a yurishga undaydi.

Sizlarga muhim bir fikrni yetkazmoqchiman: har bir tashabbus, har bir loyihangiz bo‘yicha davlatimiz, hukumatimiz a‘zolari sizlarga yelkadosh bo‘lib, yoningizda turib, ularni to‘liq amalga oshirishda yaqindan yordam beradi.

Shunday qilsak, sizlarga ma‘qul bo‘ladi, deb o‘ylayman.

Investitsiyalar — bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir.

Hech shubhasiz, bugungi Xalqaro investitsiya forumi va sermahsul muzokaralar amaliy hamkorligimizni sifat va mazmun jihatidan mulqo yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishiga ishonaman.

Barchangizga anjumanimizda ishtirok etayotganingiz uchun yana bir bor tashakkur izhor etaman.

E‘tiboringiz uchun katta rahmat.

O‘ZARO ISHONCH VA HURMAT RUHI, BIR-BIRINI QO‘LLAB-QUVVATLASH TAMOYILI UZOQ MUDDATLI HAMKORLIKNING MUSTAHKAM USTUNI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston yetakchisi mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo‘ldagi to‘siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun tashlangan qat‘iy qadamlarni sanab o‘tdi. Har bir sarmoyador o‘zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Natijada so‘nggi yillarda iqtisodiyotimiz qariyb ikki barobar o‘sd. O‘tgan yil yakuni bo‘yicha bu o‘shish 6 foizni tashkil qildi. Inflyatsiya 9 foizgacha pasaydi. Savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari muttasil oshmoqda. Valyuta bozori va oltin-valyuta zaxiralari barqarorligi saqlab qolinmoqda.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda 60 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xalqaro moliya institutlarining 14 milliard dollardan ortiq mablag‘lari ijtimoiy va infratuzilma sohalariga jalb qilindi.

O‘tgan yilning o‘zida xorijiy investitsiyalar hajmi qariyb ikki barobar ko‘paydi.

Energetika sohasida “ACWA Power”, “Masdar”, “Total Eren”, “Volitalia”, “Çalık” va “Aksa”, kimyo sanoatida “Air Products”, “Indorama” va “CAMCE”, tog‘-kon va metallurgiyada — “Orano” va “DANIELI”, avtomobilsozlik va elektrotexnika yo‘nalishlarida “BYD”, “Kia” va “Samsung”, qurilish sohasida “Koc” va “KNAUF” kabi dunyoning yetakchi kompaniyalari hamda yirik brendlari bilan 300 dan ortiq investitsiya va sanoat loyihalari ishga tushirilgani va yuz minglab yangi ish o‘rinlari yaratilgani katta mamnuniyat bilan ta‘kidlandi.

Bugungi forum doirasida dunyoning ilg‘or kompaniyalari hisoblangan “Linde”, “Oрасcom”, “DataVolt”, “Bonafarm”, “PASHA Holding” va boshqa sherkatlarimiz ishtirokida yangi yirik loyihalarga start beriladi.

Iqtisodiyotni yanada liberallashtirish, qulay investitsiya muhitini yaratish, biznes yuritish uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar va olib borilayotgan ishlar qayd etildi.

Xorijiy investorlarga dividend solig‘idan imtiyozlar, xususiyashtirish jarayonining huquqiy asoslarini mustahkamlash va xususiyashtirish dasturini kengaytirish, tadbirkorlar barqarorligi reytingini joriy qilish, sanoat zonalarini infratuzilmasini rivojlantirish, yerlarni ajratishning shaffof tizimini joriy qilish shular jumlasidan.

Bundan tashqari, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish shartlari

mamlakatimizda 28 ta loyiha ustida ishlar davom ettirilmoqda.

2030-yilgacha 20 gigavatt dan ortiq qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarini yaratish va energetika balansida uning ulushini 40 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Davlatimiz rahbari xorijiy investorlar iqtisodiyot uchun raqamli yechimlarni ishlab chiqish, sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish, “yashil” ma‘lumotlar markazlarini tashkil etish kabi istiqbolli IT loyihalarida ishtirok etishi mumkinligini qayd etdi.

O‘zbekiston Prezidenti transport infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratdi.

Temir yo‘l sohasida tub islohotlar olib borilmoqda, avtomobil va tezyurar temir yo‘llarni qurishga xususiy investorlarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Mavjud xalqaro aeroportlarni rivojlantirish va yangilarni qurish bo‘yicha loyihalar tayyorlanmoqda.

Xorijiy sherkatlar bilan birgalikda Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston va O‘zbekiston — Afg‘oniston — Pokiston temir yo‘llarini qurish bo‘yicha dastlabki ishlar boshlangani ta‘kidlandi. Ushbu strategik loyihalar mintaqadagi geoiqtisodiy vaziyatni butunlay o‘zgartirib, Markaziy Osiyoni Shimol va Janub, Sharq va G‘arb bilan bog‘laydigan global tranzit markaziga aylantiradi.

O‘zbekiston investorlarni va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga taklif etadi.

— Investitsiyalar — bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari so‘zining yakunida bugungi Xalqaro investitsiya forumi va sermahsul muzokaralar amaliy hamkorligimizni sifat va mazmun jihatidan mulqo yangi, yanada yuksak bosqichga olib chiqishiga ishonch bildirdi.

Sessiyada so‘zga chiqqanlar O‘zbekiston erishayotgan muvaffaqiyatlarni yuksak baholadilar, hamkorlikni yanada mustahkamlash va kengaytirish yuzasidan fikr-mulohazalari va takliflari bilan bo‘lishdilar.

O‘zbekiston investorlarni va xalqaro tashkilotlarni bu yirik mintaqaviy loyihalarda qatnashishga taklif etadi.

— Investitsiyalar — bu mamlakatimiz transformatsiyasining lokomotivi va iqtisodiy taraqqiyotimizning mustahkam drayveridir, — dedi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida xorijiy investorlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning ustuvor yo‘nalishlariga alohida to‘xtaladi.

Birinchi yo‘nalish: “yashil” energetika. Energetika tamog‘i samaradorligini oshirish butun mintaqamiz uchun dolzarbdir. Bu borada

XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARI BILAN UCHRASHUVLAR

Boshlanishi 1-betda

Amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish, O‘zbekistonda ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sheriklikda yuksak darajaga erishilgan mamnuniyat bilan qayd etildi. Bugungi kunda qo‘shma loyihalar portfeli 30 milliard dollardan oshdi.

Mamlakatimizda energetika tamog‘ini rivojlantirishga eng ko‘p investitsiya kiritgan “ACWA Power” kompaniyasi bilan samarali hamkorlik qilinayotgani ta‘kidlandi.

Bu galgi forum doirasida “yashil” energetika, infratuzilma, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika sohalorida 18 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha bitimlar imzolandi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, qishloq xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda yangi loyihalarni ilgari surish zarurligi qayd etildi.

Birlashgan Arab Amirliklari iqtisodiyot vaziri Abdulla bin Al Marriy uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri Shayx Muhammad Ol Maktum, vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi Valiadihi Shayx Holid Ol Nahayonning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning qo‘shma loyihalarini qo‘llab-quvvatlash va ilgari surishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida sheriklik jadal rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma korxonalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar soni oshib bormoqda. Ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari ishtirokidagi loyihalar portfeli 4 milliard dollarga yetdi.

Energetika, transport, logistika, qishloq xo‘jaligi, suv ta‘minoti va boshqa sohalarda yirik loyihalarni tezlashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘mon Sultonligi savdo, sanoat va investitsiyalarga ko‘maklashish vaziri Qays bin Muhammad al-Yusuf uchrashuv boshida davlatimiz rahbariga O‘mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saldning samimiy salomini yetkazdi.

O‘zaro manfaatli hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy yo‘nalishlarda kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Energetika, transport, sog‘liqni saqlash, turizm, geologiya, oziq-ovqat, to‘qimachilik, kimyo sohalarida, shu jumladan, O‘zbekiston — O‘mon investitsiya kompaniyasi ko‘magida



Ishtirokchilar fikri

BARCHA TOMONLAR MANFAATDOR

III TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDA
ISTIQBOLLI KELISHUVLARGA ERISHILMOQDA

Shu kunlarda poytaxtimiz yirik xalqaro tadbirga mezbonlik qilmoqda. Chet ellik ishbilarmon, investor, biznes vakillari III Toshkent xalqaro investitsiya forumida ishtirok etish uchun jamlandi. Anjumanning bu yilgi mehmonlari soni rekord darajaga yetdi — 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ziyod delegat, jumladan, hukumat rahbarlari, BMT, YTTB, OPEK, SHHT singari nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari qatnashchilar qatoridan joy olgan.

Davlatimiz rahbari xalqaro forumni ochib berib, uning yalpi majlisida nutq so'zlar ekan, mazkur tadbirning naqadar muhim ekaniga e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, bu yo'lidagi to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish uchun qat'iy qadamlar tashlangani qayd etildi. Har bir sarmoyador o'zini erkin va ishonchli his qilishi uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmog'ida. Oxirgi yillarda 60 milliard dollardan ziyod

xorijiy investitsiya o'zlashtirilgani buning yaqqol isboti. Isonch va erkinlik, albatta, sarmoyador uchun eng muhim jihati. Qolaversa, mamlakatdagi rivojlanishlar ham uning jozibadorligini yanada oshiradi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida investorlarga barcha sharoitlarni yaratib berish, huquqiy kafolatlarini ta'minlash, qulay biznes muhitini yaratish borasidagi ishlar jadal davom etishini ta'kidladi. Ushbu yo'nalishda ko'zlangan yillar davomida sanab o'tildi.



Bildirilgan ishonch xorijlik investorlarni ham ruhlantirmog'ida. Yurtimiz bozoriga dadil kirib kelayotgan chet el kompaniyalari, investor va ishbilarmonlar bunga ishonchi yuqori ekan, amaliyotda guvoh bo'layotganini bildiriyapti.

Xiroyuki ITO,
O'zbekistonning Nagoya
shahridagi faxriy konsuli:

— Davlatimiz rahbarining nutqini tinglab, amin bo'ldimki, O'zbekistonda investorlarni qo'llab-quvvatlash borasida katta qadamlar tashlanyapti. Masalan, xorijiy sarmoyadorlar uchun 49 yilgacha yer ijaraga berilishi haqida gapirildi. Bu juda jozibador taklif va yapon kompaniyalari O'zbekistonga kirishida muhim rol o'ynaydigan jihatlardan biri.

Toshkent xalqaro investitsiya forumida ilk bor ishtirok etyapman va fikrlarim ijobiy. Bunday shakldagi platforma investitsiya bo'yicha keng ko'lamli hamkorlik rivojiga ko'mak beradi. Birgina yapon investorlaridan 30 dan ortig'i mazkur forumda ishtirok etyapti. Boisi, yapon ishbilarmonlarining O'zbekistonga qiziqishi ortib bormog'ida. Ma'lumotlarga ko'ra, 2016-2017-yillarda O'zbekistonda 25 ta yapon kompaniyasi bo'lgan, hozirgi kunda 70 tadan oshdi. Ko'proq ko'chmas mulk, moliya, energetika sohaslarida yapon investitsiyalari oshib bormog'ida. Ayniqsa, oxirgi vaqtlarda O'zbekistonda turizm sezilarli rivojlanmog'ida va bu investorlarimiz e'tiborini tortyapti. Shu bilan birga, mehmonxonalar qurish, moliyalash tizimi, xususiy ta'lim, ishlab chiqarish sohaslarida investitsion loyihalarni kengaytirishni maqsad qilganmiz.

Yaponiyada kompaniyalarning 99 foizi kichik va o'rta biznes sektoriga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda O'zbekistonda ham shu yo'nalishlar

rivojlanayotgani quvonarli va o'zaro hamkorlik yaxshi natija beradi. Yaqinda Nagoya shahrida O'zbek — Yapon savdo uyi ochildi. U yapon kompaniyalarining O'zbekistonga investitsiya kiritishdagi faolligini oshirishda ko'prik vazifasini o'tayapti.

Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilda Yaponiyaga tashrifi doirasida mamlakatimizning turli hududlari bilan alohida hamkorlik kelishuvlariga erishilgan. Ulardan biri Nagoya shahri bo'lib, bu yer Yaponiyaning manufakturasi markazi sanaladi. Shaharning yalpi ichki mahsuloti hajmi 363 milliard dollarga teng. Biz turli sohalarda O'zbekiston bilan hamkorlikni kengaytirish, investitsiyalar kiritishni maqsad qilganmiz. Forum doirasida yangi hamkorlar topish niyatidamiz.

Muhammad
ABDULLA ABUNAYYON,
Saudiya Arabistonining
"ACWA Power" kompaniyasi
boshqaruvi raisi:

— Yana bir bor O'zbekistonda bo'lib, eng yaqin iqtisodiy hamkorlarimiz bilan uchrashib turganimizdan mamnummiz. Bu galgi Toshkent xalqaro investitsiya forumi geografiasini, ko'lami yanada kengaytganiga guvoh bo'ldik. Bu xorijlik ishbilarmonlarning O'zbekistonga qiziqishidan dalolat. Ayniqsa, mamlakat yetakchisining nutqini tinglab, juda ta'sirlandim. Prezident Shavkat Mirziyoyev o'z xalqi, fuqarolarini sevishi, ularning yaxshi yashashi, sifatlari ta'lim olishi uchun barcha imkoniyatlarni ishga solayotgani shundoq sezilib turibdi. Bu yurtning odamlari ham o'z g'oyaga — juda quvnoq, doim kulib turadi. Insonlarning ko'zida kelajakka ishonch bor. Bunday davlatning kelajagi esa, albatta, buyuk bo'ladi.

Iqtisodiy aloqalarimizga kelsak, O'zbekiston do'st ekanidan xursandmiz. Ya'ni o'rtaadagi do'stlik va ishonch katta loyihalarga, yirik iqtisodiy hamkorlikka yo'l ochyapti. Mazkur yurt biz uchun katta bozor. Qisqa muddat ichida mamlakatga 8,9 milliard dollar investitsiya kiritildi. Ayni paytda "yashil" energetika sektorida 6 GvT quvvatiga ega loyihalar ro'yog'ga chiqarilayapti.

Hozir O'zbekiston "ACWA Power" kompaniyasi Saudiya Arabistonidan so'ng eng ko'p investitsiya loyihalarini amalga oshirib kelayotgan ikkinchi mamlakatdir. Yurtimizda kompaniya ishtirokidagi loyihalar qiymati 7,5 milliard dollardan ziyod. Bu yo'nalishdagi investitsion loyihalarni yanada ko'paytirishni ko'zlaganmiz. Qolaversa, mintaqaviy infratuzilma, jumladan, transport va ekologiya sohaslarini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda ishtirok etib, ularni qo'llab-quvvatlashga qiziqish bildiriyapmiz. Bu borada qo'shma loyihalarni amalga oshirish maqsadimiz bor. Forum doirasida qator muhim kelishuvlarga erishdik. Shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasida "yashil" energetika, infratuzilma, sog'liqni saqlash va farmatsevtika sohaslarida 18 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bitimlar imzolaniishi kutilyapti.

Nikolay SELEZNYOV,
"Uzum" savdo tarmog'ining
strategiyalar va
biznesni rivojlantirish
direktori:

— Toshkent xalqaro investitsiya forumi biznes vakillari, xorijlik investorlar uchun o'z eshiklarini ochib, hamkorlikka chorlayotgani katta qadam. Tadbir O'zbekistonda investorlar uchun yaratilgan sharoitlarni tanishtirish barobarida yirik loyihalar, kelishuvlarga yo'l ochadi. Ochiq'ini aytish kerak, mamlakatda bir necha yil oldin ishbilarmonlar uchun sharoitlar yaratish bo'yicha juda mustahkam poydevor qo'yildi va u tobora rivojlanib bormog'ida. Imkoniyatlar biz kabi kompaniyalarni quvontiradi, mamlakatda erkin biznes qilishga, ertangi kunga ishonch uyg'otadi. Ana shu ishonch investorlarni O'zbekistonga chorlamog'ida.

Buni "Uzum market" misolida ham ko'rish mumkin va qisqa vaqtda kompaniya O'zbekiston elektron bozorida katta o'ringa ega bo'ldi. Forumning panel sessiyalari davomida ushbu kompaniyaning O'zbekistondagi ikki yillik faoliyati hamda rivojlanishi haqida ma'ruza qildim. O'tgan davrda biz logistika infratuzilmasi, axborot texnologiyalari mutaxassislariga katta investitsiya kiritib, ko'plab ish o'rnlari

yaratdik. Buning uchun bizga to'siqlar qo'yilmadi, aksincha, imkoniyat berildi. Kelajakdagi rejalarimiz ham talaygina. Chunki biznes doim rivojlanib borishi kerak, buning uchun esa investitsiya zarur. Keyingi 5-7 yilda sohada bizni 10 karra o'sish kutyapti. Katta o'zgarishlar, yangilanishlar bo'ladi. Odamlar qulay, tezkor va tejamkor onlayn xaridlariga o'rganib bormog'ida. Mazkur soha kelgusida bozorning katta qismini egallaydi. Bu esa biz kabi kompaniyalarning yanada rivojlanishiga yo'l ochadi. Toshkent xalqaro investitsiya forumida yirik kompaniyalar, katta investorlar ishtirok etyapti. Biz ham hamkorlar bilan uchrashib, investitsiyalar bo'yicha kelishuvlarga erishishni ko'zlaganmiz. Muloqotlar juda qizg'in kechmog'ida.

Alberto MANUEL,
ispaniyalik jurnalist:

— Toshkent xalqaro forumida ilk bor ishtirok etyapman, ammo O'zbekistonga to'rtinchi kelishim. Samarqandda ham bo'lganman, betakror shahar. Deyarli 40 yildan buyon jurnalistika sohasida faoliyat yuritaman. Hozir Madriddagi bir nechta gazeta va jurnalda ishlayapman. Forumni xorijlik hamkasblarim qatorida yoritishdan mamnumman.

Anjuman yuqori saviyada tashkil etilgan. Turli davlatlardan kelgan investorlar muhokamalarga kirishgan. Yirik iqtisodiy loyihalar imzolaniishi kutilyapti. Bunday tadbirlar mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. Xorijlik investorlarni ko'plab sohalarda qiziqtirayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Xususan, ispaniyaliklar, asosan, energetika, transport va turizm sohaslariga investitsiya kiritishni ko'zlagan. Hamkorliklar kengayib borishi, forum natijalari yuqori bo'lishidan umidvormiz.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Iroda TOSHMATOVA yozib oldi.

BIZ VA DUNYO

YANGI O'ZBEKISTON CHET EL KOMPANIYALARI
UCHUN ENG ISHONCHLI HAMKORGA AYLANMOQDA

2-may kuni poytaxtimizda uchinchi Toshkent xalqaro investitsiyaviy forumi o'z ishini boshladi. Forumga dunyoning 93 mamlakatidan ikki yarim mingdan ziyod xorijiy ishbilarmon va siyosiy doira vakillari tashrif buyurdi.

Qayd etish kerakki, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan tashkil etilayotgan xalqaro forum o'tgan uch yil davomida ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali muloqot maydoniga aylandi.

Forumda bevosita ishtirok etayotgan va uni kuzatib borayotgan xorijiy ekspertlar ushbu tadbir O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan strategik tashabbus hamda loyihalar platformasiga aylanganini ta'kidlamog'ida.

Nina LINDE,
Latviya Fanlar akademiyasi
Iqtisodiyot instituti direktori,
professor:

— O'tgan vaqt mobaynida Toshkent xalqaro investitsiya forumi Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik biznes muzokaralar platformasi maqomiga ega bo'ldi.

Bugun tadbirida investitsiyaviy, savdo-iqtisodiy hamkorlikni oshirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi, biznes yuritishda yangi g'oya va yondashuvlar ishlab chiqildi. Toshkentga dunyoning 93 davlatidan ikki yarim mingdan ziyod xorijlik mehmonlar tashrif buyurgani forumning ahamiyati tobora ortib borayotganidan dalolat.

Mazkur forum qatnashchilari o'tgan yildagidan ko'ra ancha ko'payganini aytish joiz. Bu esa O'zbekistondagi iqtisodiy imkoniyatlarga qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

— Avvalo, O'zbekistonning Toshkent xalqaro investitsiya forumini o'tkazayotgani xorijiy sarmoyalarni jalb etishning samarali usuli, deb o'ylayman. So'nggi ikki yilda mamlakatga jalb qilingan xorijiy investitsiyalarning hajmi keskin ortgani buni isbotlaydi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonda investitsiyalarni jalb etish bo'yicha "yashil" energetikani, moliyaviy hamkorlikni, foydali qazilmalarni, "aqli" va raqamli texnologiyalarni, transport infratuzilmasini rivojlantirish va boshqa beshta ustuvor yo'nalishga alohida to'xtaldi. Davlatimiz rahbarining nutqi biz uchun juda muhim, chunki u strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Prezident, shuningdek, O'zbekiston bo'ysohalarga



O'zbekistonda mintazam o'tkazib kelinayotgan bunday tadbirlar mamlakatdagi investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, erkin savdo yo'lidagi barcha to'siqlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish va sarmoyaviy faoliyatni amalga oshirishga xizmat qilmoqda.

investitsiya kiritishga ustuvor ahamiyat qaratishi, bu juda to'g'ri siyosat va yo'nalish ekanini ta'kidladi. Xitoyning ko'plab kompaniyalari ushbu yo'nalishlardagi loyihalarga qiziqish bildirilmog'ida va tenderlarda faol ishtirok etib, o'zbekistonlik hamkorlari bilan samarali aloqalarni yo'lga qo'yishga intilyapti.

O'zbekistonning so'nggi bir necha yil ichida xorijiy investitsiyalarni jalb etish borasida erishgan yutuqlaridan mamnumman. Mamlakatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan yangi siyosat va choratadbirlar meni ruhlantirdi. Ular mamlakatning yangilangan Konstitutsiyasi ruhini o'zida aks ettiradi, yangi O'zbekistonda bunyod etishda, iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirish va xalq turmush darajasini yuksaltirishga faol hissa qo'shmoqda.

Kim YONG GU,
Koreya — O'zbekiston biznes
uyushmasi raisi, "Shindong
Resources" kompaniyasi rahbari:

— Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi O'zbekiston imkoniyatlarini muhokama qilish uchun biznes vakillari, hukumat va investorlarni birlashtirgan muhim tadbirdir.

Davlat rahbari mazkur forumda ishtirok etib, O'zbekiston hukumati uchun investorlarga yordam berishga tayyorligini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidenti investitsiyaviy muhitni yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, investorlar imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan muhim g'oya va takliflarni bildirdi. Masalan, 20 gigavatt dan ortiq qayta tiklanadigan energiya quvvatini yaratish va uning ulushini 2030-yilgacha 40 foizga yetkazish maqsadida O'zbekistonning "yashil" energiya bo'yicha ulkan rejalarini namoyish etadi.

Jahondagi yetakchi kompaniyalar bilan birgalikda yirik shamol va quyosh elektr stansiyalarining ishga tushirilishi, "ACWA Power" kompaniyasi bilan birgalikda amalga oshirilayotgan "yashil vodorod" loyihasi ham bu sohadagi salmoqli yutuqlardir.

Jonatan XENIK,
Amerika Qo'shma Shtatlari elchisi:

— O'zbekistonda yildan yilga qator ijobiy o'zgarishlarga guvoh bo'lyapman. Xususan, xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish va jalb etish bo'yicha hukumat tomonidan qator dasturlar ilgari surilmog'ida. Shu bilan birga, hali qiziqish kerak bo'lgan ishlar ham bor va bu bizroq vaqt talab qilinadigan masaladir. Ammo eng muhimi sa'y-harakatlar to'xtab qolgan yo'q.

Shuningdek, mazkur forum qatnashchilari o'tgan yildagidan ko'ra ancha ko'payganini aytish joiz. Bu esa O'zbekistondagi iqtisodiy imkoniyatlarga qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolatdir. AQSH kompaniyalarining ushbu forumga kutilganidan ham ko'proq qiziqish bildirayotgani esa bizni quvontirmog'ida.

Timoti SMART,
Buyuk Britaniya
elchisi:

— Yangi O'zbekiston to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishga harakat qilmoqda. Ishbilarmonlik muhiti va ekotizimni rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlaymiz. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini topishga, Buyuk Britaniya bilan savdo aloqalarini kengaytirishga birgalikda intilamiz. 2016-yil oxiridan buyon mamlakatdagi iqtisodiy rivojlanish darajasi menda katta taassurot qoldirdi. Bu haqiqatan ham ajoyib. Ta'limdan tortib, "yashil" iqtisodiyotgacha bo'lgan sohalarda hamkorlikda ishlab chiqish mumkin bo'lgan ko'plab imkoniyatlarni ko'ryapman.



Van SYANSZYUY,
Xitoyning Rossiya tadqiqotlari
markazi direktori o'rinbosari,
professor:

YASHIL MAKON

YASHNAYOTGAN "MENING BOG'IM"



Ko'chat ekish, bog' yaratish — ezgu amal. Ota-bobolarning farzandu nevaralariga atab daraxt ekishi avloddan avlodga o'tib kelayotgani ham bejiz emas. O'sha ekilgan nihollar, shu jumladan, teraklarning qurilajak yangi uyga sinch yoki ustun bo'lishi niyat qilingan.

Abdurauf QORJOVOV, iqtisodiy sharhlovchi



Gap terak haqida borar ekan, uning boshqa jihatlarini ham esga olish zarur. Masalan, u yurtimizdagi eng yaxshi havo tozalovchi daraxtlardan. Karbonat angidridni o'ziga singdirib, ninabargli daraxtlarga nisbatan 10 barobar ko'p kislorod hosil qiladi. Shu bilan birga, zararli mikroblarni o'ldiruvchi fitonsidlar ham ishlab chiqaradi.

Yoki tut daraxtini olaylik. U zaminimizda ko'p asrdan buyon ekilib, mevasi, sharbati, shinnisi va mayizdan foydalanib kelindi. Tut ekilgan hududda yashovchi aholi sil kasalligiga chalilmaydi. Mevasidan shifobaxsh har xil damlama va qaynatmalar tayyorlanadi. Bargi ipak qurti uchun asosiy ozuqa manbai. Ildizi tuproq unumdorligini oshirib, zararli moddalardan asrovchi meliorator vazifasini bajaradi.

Yurtimizda o'suvchi har bir daraxtning bez bilan va bilimgan xosiyati ko'p. Ularni yetishtirish va parvarishlash bo'yicha esa qadimdan katta tajriba to'plangan. Eng muhimi, bu jarayon ayni kunda yangicha mazmun va ko'lamda davom etyapti. "Yashil makon" umummilliy loyihasi bu sa'y-harakatlarning eng muhimi. Uning doirasida mamlakat miqyosida har yili 200 million tupdan manzarali va mevali daraxt hamda buta qalamchalarini ekish orqali yirik shaharlarda yashilik darajasini 8 foizdan 30 foizga yetkazish rejalashtirildi.

O'tgan uch yilda mamlakatimizda jami 500 million tupga yaqin daraxt va buta ko'chati ekildi, 935 gektar yashil bog' va 893,5 gektar yashil jamoat xiyoboni tashkil etildi. Shunga qaramay, sohada yechimini kutayotgan ayrim muammolar saqlanib kelayotgan edi. Xususan, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish jarayonini tizimli yo'lga qo'yish talab etilardi. Yana bir tomon, ayrim rahbarlar bu ishni o'z holiga tashlab qo'ygani edi. Ko'chatlar sug'orish tizimi mavjud bo'lmagan hududlarga ekilgan sabab o'tgan yili avgust oyiga kelib, 10 million nihol nobud bo'lgan. Yo'llar bo'yida ko'chat ekish ishlari 33 ta tuman va shaharda umuman bajarilmagan.

Inspektorlarimizning o'rganishi natijasida 2020-yilda mamlakat bo'yicha daraxt ekish bilan bog'liq 46 mingta holat aniqlangan.

Ayni paytda jamoatchilik nazorati kuchaytirilgan. Daraxtlarni kesganlik uchun javobgarlik ham oshgan. Shu yil avvalidagi tartib bo'yicha diametri 1 metrl bir tup qimmatbaho daraxt kesgan shaxs yoki tashkilot 100 million so'mga yaqin jarima to'laydi.


Vazirlik xodimlarining monitoringi natijalariga ko'ra, 2022-yil kuz va 2023-yil bahor mavsumida ekilgan ko'chatlarning 10 million tupga yaqini qurigani aniqlangan. Shundan 7,5 millionga yaqini suvsizlik oqibatida nobud bo'lgan. Bu yo'qotish o'rinni qoplash uchun 2023-yil kuz mavsumida rejadan ortiq 92 million tup daraxt ekildi. Shu bilan reja 108 foiz bajarildi.

2023-yil 11-avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari o'z hududida ekologik vaziyatni yaxshilash, aholiga qulay yashash va toza havo muhitini yaratish endi hokimlarning eng asosiy vazifalaridan biri bo'lishini ta'kidladi. Tegishli huddudlar rahbarlariga qarovsiz qolgan 10 million tup nihol o'rimga yana shuncha daraxt ko'chatini suv ta'minoti yaxshi hududlarga ekish topshirig'ini berdi. Bundan buyon ko'chat ekish tadbirlari har yili tasdiqlanadigan investitsiya dasturi asosida bajarilishi belgilandi. Bu maqsad uchun avvalgi yillarga nisbatan 10 barobar ko'p — 500 milliard so'm yo'naltirildi.

Prezidentimizning o'tgan yil 23-noyabrda "Respublikada yashilik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi "Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan "Mening bog'im" loyihalarini



Vazirlik xodimlarining monitoringi natijalariga ko'ra, 2022-yil kuz va 2023-yil bahor mavsumida ekilgan ko'chatlarning 10 million tupga yaqini qurigani aniqlangan. Shundan 7,5 millionga yaqini suvsizlik oqibatida nobud bo'lgan. Bu yo'qotish o'rinni qoplash uchun 2023-yil kuz mavsumida rejadan ortiq 92 million tup daraxt ekildi.



bog' va yashil jamoat parklarini barpo etish uchun sug'orish tizimini o'rnatish, ekilgan daraxt hamda buta ko'chatlarini uch yil parvarishlash, kasalligi zararkundalarga qarshi kurashish tadbirlarini o'tkazishi zarur.

Bunday keng ko'lami ishlarni bajarish, birinchi navbatda, sifati ko'chat yetishtirishni taqozo etadi. Bu yumush kim va qaysi tashkilot tomonidan bajariladi? — Bu borada o'rmon xo'jaligi xodimlari rejalari ishlayapti, — deydi O'rmon xo'jaligi agentligi direktori o'rinbosari G'olibjon Qurbonov. — Jumladan, bu yil o'rmon fondining 7 ming gektar maydoni o'zlashtirilib, foydalanishga kiritiladi. Cho'l va boshqa turdagi yerda ekishga mo'ljallangan daraxt va butalarning 1150 tonna urug'i jamg'ariladi. Huddularning tuproq-iqlim sharoitiga mos 122 million tup ko'chat yetishtiriladi. Ekologik vaziyatni yaxshilash maqsadida 240 ming gektar o'rmonzor, jumladan, Orol dengizining qurigan tubi va Orolbo'y hududidagi 226 ming gektar maydonda yashil qoplama barpo etiladi.

shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilindi.

Endi "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda respublika budgetidan har yili ajratiladigan mablag'ning kamida 50 foizi yashil bog' va yashil jamoat parklari tashkil qilish uchun "Ochiq budget" axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan "Mening bog'im" loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bosh mutaxassisi Ismat Dilmurodov. — Buning uchun qiymati 250 million so'mdan oshmagan tashabbuslar ilgari suriladi. Bu boradagi loyihalarni shakllantirish va ovoz berish jarayoni har yili yanvar-fevral oylarida o'tkazilishi belgilangan. Ularni baholash, saralab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo'yicha tuman (shahar) hokimliklari huzurida munitsipal vazirlik va idoralar vakillaridan iborat ishchi guruhlar tuziladi.

Yana bir ahamiyatli tomoni, loyihalar ijrosini ta'minlovchi pudratchi tashkilotlar zimmasiga aniq talablar qo'yilgan. Xususan, ular daraxt, buta ko'chatlarini yetishtirish va ekish bo'yicha kamida uch yillik tajribaga ega bo'lishi, yashil

to'g'ri tuziladigan ikki tomonlama shartnoma asosida barpo etiladi. Yer uchastkalari respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yashil bog' yaratish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida beriladi.

Mamlakatimizdagi 1,5 ming fermer, dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yer egalari 81 million tupdan ziyod tut, tok, tol, yong'oq va boshqa daraxtlar niholini parvarishlamog'da. Bu savobli ishni davom ettirish uchun har bir xonadon egasi o'z tomorqasiga, mahalla guzari va ko'chasiga 10 tupdan ko'chat o'tqazsa, yurtimizda shu yilning o'zida o'rta 55 million tup daraxt ekiladi.

Haqiqatan, ko'chat yetishtirish va aholining unga ehtiyojini ta'minlashda tomorqa yer egalarning o'rni katta. Bu jarayonda erkin bozor munosabatlari amal qilayotgani ularga daromad keltiryapti va manfaatdorligini oshiryapti. Bunga faolona viloyati Quva tumani bog'bonlari faoliyatini misol keltirish mumkin. Hududida har yili o'rta 100 million tup ko'chat yetishtiriladi. Buning uchun 25 mingdan ortiq xonadondagi tomorqalarda manzarali, mevali ko'chatlar parvarishlanadi. "Qoragum", "Yangi chek", "Tolmozor", "Madaniyat", "Guliston" kabi mahalla fuqarolar yig'inlaridagi aholi, asosan, shu yumush bilan shug'ullanadi. Keyingi paytda atirgulchilik ham aksiyat mahallalarining daromad manbaiga aylanib boryapti. Bir oila bundan yiliga 40-50 million so'm daromad olmog'da.

Bunday tajribani yurtimizning har bir hududidan misol keltirish mumkin. Qishloqda yashab, tomorqasini chamanzorga aylantirayotganlarga havasimiz keladi. Katta shaharlardagi ko'p qavatli uylarda yashayotganlar uchun ham imkoniyatlar yuzaga kela boshladi. Masalan, Chaqar mahallasi poytaxtimizning qoq markazida joylashgan. Aksariyat ko'p qavatli xonadonlardan iborat. Yaqingacha 12 qavatli uylar qad rostlagan mavzudagi binolar atrofi ko'rimsiz holga kelgan, pastki qavatda yashayotganlar o'z uyiga oldingi daraxt yoki gul ekkan bo'lsa-da, oqar suv bo'lmagani bois, hadiksirab parvarishlab keladi.

Shu yil avvalidan manzara tubdan o'zgaradi. Binolar oldida yashil yo'laklar paydo bo'ldi, bolalar uchun turli sport maydonchalari barpo etildi. Ular atrofi esa yashil hududga aylantirildi. Eng muhimi, yuqori qavatlarda yashaydiganlarning ham ana shu bog'chalarda o'z daraxti va guli bor. Nihollarga ilib qo'yilgan yoriqlarda xonadon egalarning ismi yozilgan. Xullas, har bir ko'chatning o'z egasi bor. Shuning uchun yaproqlari tobora yashillanib boryapti.

Shu kunlarda mamlakatimizdagi barcha daraxtraqamlashtirilib, xatlovdon o'tkazilmoqda. Toshkent shahrida esa sinov tariqasida daraxtlar pasportlashtirilyapti. Hamma biladi: fuqarolik pasporti insonning shaxsini tasdiqlovchi asosiy hujjat bo'libgina qolmay, g'urur, iftixor ramzi hamdir. Fuqarolik pasportiga ega kishi davlat himoyasida bo'ladi. Mana endi shunday hujjat daraxtlarga ham berilyapti.

Mahallaning bir kuni

YETTOVLON YETUK BO'LSA...



Gulnora Boboqulova erta tong "Zilol" mahalla fuqarolar yig'ini idorasiga kelganida Jizzax shahridagi eng gavjum Mustaqillik ko'chasidan ondasonda mashinalar o'tib turardi, odamlar deyarli ko'rinmasdi. Ishga burchalar barvaqt kelishiga sabab bor. U kecha haftalik rejaning belgilab, "yettilik" bilan maslahatlashib olmoqchi edi. Lekin qabulga ancha odam kelib, reja tuzishga ham vaqt bo'lmadi.

Ish stolini tartibga keltirgach, reja rejalashtirilgan vazifalarni qoralay boshladi. "Birinchi navbatda "Yashil makon" umummilliy loyihasi bo'yicha ko'chalarda qilinadigan ishlarni kiritish kerak, — deb o'yladi u. — Tomorqalarni ko'kalamzorlashtirish ham juda dolzarb masala. Mahalladagi har bir tomorqada oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ommalashtirish zarur, asosiy kuchni shu masalalarga tashlashimiz kerak, agar kunlar isib ketsa, kech bo'ladi".

Rejaning dastlabki nusxasi tayyor bo'lganida birin-ketin xodimlar ham kela boshlashdi. — Opa, juda barvaqt kelibsiz, tinchlikmi? — dedi hokim yordamchisi Muzaffar Xoliqov.

— Ha, kecha ulgurmagan ishlarimni oxiriga yetkazib qo'ydim. Hamma kelgach, xonamda yig'ilaylik, hafta davomida bajarilishi zarur vazifalarni belgilab olamiz.

Zilol mahallasi faollari har bir ish kunini shunday boshlaydi. Besh daqiqa vaqt maslahatlashuv va ishlarni taqsimotiga ajratiladi. Bugungi maslahatlashuv bir oz cho'zildi. Chunki hafta mobaynida eng zarur vazifalar belgilab olindi.

— Ko'chalarga ekilayotgan ko'chatlar parvarishini tashkil etish, tomorqalardan samarali foydalanish, umuman, har bir xonadonda issiqxonalar bo'lishini ta'minlash, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish birinchi navbatdagi vazifamiz. Mahalladagi oqsog'qollar, issiqxona qurgan fuqarolarimiz ishtirokida ko'chalarda yig'ilishlar o'tkazib, tushuntirish ishlari olib borishimiz kerak, — deydi Gulnora Boboqulova.

Ishning rejalari tashkil etilishi natijasida mahalladagi 10 chaqirim ichki yo'lga asfalt yotqizildi. 1,5 kilometr piyodalar yo'lagi qurildi. Eskiirib, muddatini o'tagan 85 ta simyog'och o'miga beton ustunlar o'rnatildi, 4 ta transformator to'liq ta'mirlandi. Mahalladagi 13 ta ikki qavatli uy ham kapital ta'mirdan chiqarildi. Bu ishlarning ijobiy hal etilishida Gulnora Boboqulovaning jonkuyarligi, talabchanligi, aholi xohish-istagini hokimlikka ko'tarib chiqqa olgani sabab bo'ldi.

U o'zi tuzib chiqqan rejaning "mahalla yettiligi" e'tiboriga havola etib, ularning takliflari asosida yanada mukammal holga keltirdi.

— Opa, kechagi oilaviy mojaroda kuyov bilan kelin bir to'xtamga kelmasdi, ularni nima



qilamiz? — dedi xotin-qizlar faoli Komila Rashidova.

— Men hammasini o'yab qo'ydim, kuyovning ko'p yillar o'qituvchi bo'lib ishlagan amakisi bor. U bilan birga borib, oiladagi g'alvaga barham beramiz, — dedi Gulnora opa. — Yana bir gap, xonadonlarga qanday ish bilan bormang, o'zingizga bevosita tegishli masalalarni ham hal qiling.

Darhaqiqat, bugun mahallalarda ish qizg'in. Bir ish oxiriga yetmay, ikkinchisi ro'para bo'ladi. Yaxshiyam "mahalla yettiligi" tashkil etildi. Avvalgi mahalla tuzilmasi bilan bunday keng ko'lami ishlarni uddalab bo'lmadi. Masalan, hozir soliqchi xonadonlarni aylanan ekan, fuqarolarni tadbirkorlikka ham undaydi, aniq hisob-kitoblar bilan oilaga keladigan foydani ko'rsatib bera oladi. Qolaversa, mahallada tadbirkor ko'paysa, soliqlar miqdori ham ortib boradi. Yoshlar yetakchisi mahalla ahlining asosini tashkil etuvchi yigit-

qizlar bilan ishlash jarayonida ularni foydali mehnatga jalb etish, mahallani obod qilish, dastur va loyihalarni amalga oshirishda yoshlar ishtirokini ta'minlashga e'tibor qaratadi. "Mahalla yettiligi"ning maqsadi birinchi galda odamlarning farovon yashashiga shart-sharoitlar yaratib berishdan iborat.

"Zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba o'rtiramiz, yana o'zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi talhalariga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz — mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi", deya ta'kidlagandi davlatimiz rahbari.

Zilol Jizzax shahridagi eng kenja mahallalardan biri. Ayni paytda mahalla hududida 13 mingdan ziyod kishi yashaydi.

— Agar bitta kichik tadbirkorlik subyektni biznesga jalb qilib, yirik korxonaga aylantirsak, o'nlab yuzlab odam ishlari bo'lib qoladi. Endi kun tartibiga masalani shu taxlitda qo'yishga o'rganishimiz zarur. Mahalla raisidan ko'p ishlarni o'rganaymiz. Yaqinda u Toshkent viloyatidan 20 mingta jo'ja olib kelib, xonadonlarga tarqatdi. Unga hech kim shu ishni qilasan, deb topshiriq bermagan, o'zi tashabbus ko'rsatdi, jo'ja sotib olishga ham o'zi mablag' topdi. Bunday insonlar yoningida yelkadosh bo'lsa, charchoqni ham unutasan, yangi g'oyalari paydo bo'ladi, — deydi u.

Hayotning chorak asrini mahallaga bag'ishlagan Gulnora opa shu yil 8-mart arafasida "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi. Bu e'tirof "yettilik"ka qo'sh qanot bag'ishladi.

Ana shu xushkayfiyat, ko'tarinkilik bilan "Yashil makon" umummilliy loyihasida belgilangan vazifalarni bajarishga kirishildi. Barcha bo'sh turgan joylarni arxitarali chizilib, ob-havoning qulay kelganidan foydalangan mahalla ahli 4000 tup daraxt ko'chati, 3000 dan ortiq terak va buta qalamchalari ekdi.

— Mahalla ko'chalarini obod qilish qiyin ish emas, hashar e'lon qilinsa, xalqimiz uydagi ishni tashlab chiqib keladi. Ammo maqsadimiz bir yo'la xonadonlarni ham obod qilishdir. Hozir istalgan hovliga kirib ko'ring, yashilik va orastalidan ko'nglingiz yayraydi. Bunda mahallamiz nuroniyatining hissiasi beqiyos. Hamroqul ota Jabborov, Zoirjon Rasulovni mahalla ahli e'zozlab, "elboshi" deydi. Ular doim yonimizda, mahalla faollariga maslahatgo'y, yoshlarga yo'l ko'rsatuvchi, birorta ma'raka ularsiz, yo'l-yo'rig'isiz o'tmaydi. Shuning uchun mahallamizda jinoyat yo'q, tinchlik-osudalik hukmron, — deydi mahalla raisi Gulnora Boboqulova.

Jizzaxda yangi maqol paydo bo'libdi: "O'tovlon ola bo'lsa, opa zidagin oldirar, yettovlon yek bo'lsa, unmagami undirar". Aslida, maqol azaldan bor edi. Ammo ijodkor xalqimiz uni "mahalla yettiligi"ning davrimizdagi ahamiyatiga moslab, bir oz o'zgartiribdi. Nima ham derdik, xalqimizga shu ma'qul bo'lsa, bizga ham ma'qul.

Asad MUSTAFOYEV, jurnalist

3-may — Jahon matbuoti erkinligi kuni

Chamasiz 12 yil avval bo'lsa kerak, respublika nashrlaridan birida ishlayman. Lavozim ham chakki emas — bosh muharrir o'rinbosari. Iqtisodiy ahvol tangligi bois, shtat oz, tahririyatimizda maqola yozishi mumkin bo'lgan muxbirlarni bir qo'lining barmog'ida sanasangiz, yarmi ortib qoladi. Shuning uchun unda-bunda maqola, tadbirlardan xabarlar yozib, sahifalarni to'ldirishga hissa qo'shib turishimga to'g'ri keladigan sharoit. Boz ustiga, maoshi ozligi uchun fotograf o'rni ham bo'sh. Ammo yaxshi, o'sha payt uchun ilg'or zamonaviy fotoapparat bor.

Bir kuni Asaka zavodida ishlab chiqarishi yo'lga qo'yilayotgan avtomobilning yangilangan modeli taqdimot marosimiga taklifnoma tashlab ketishdi. Bu yaxshi yangilik, albatta, yoritishimiz kerak, degan qarorga keldim. Tadbir kechki paytga belgilangan ekan. Suratga ham tushirib kelaman deb fotoapparatni shartta yelkaga ilib, manzil — Toshkent shahridagi Turin politexnika

— Jurnalist bo'lsangiz, rahbarimizni suratga tushirish mumkin emasligini nega bilmaysiz? Nima maqsadda Falonchi Falonchiyevichni rasimga oldingiz?

Qarasam, vaziyat ancha jiddiy. Pachakilashib, hammaning e'tiborini o'zimga tortgim kelmadi. Gappa aralashmasa-da, atrofda yana 2-3 tasi paydo bo'ldi. Xullas, "shirin subhatimiz"



FIDOYILIK FORMULASI

topqirlik, zukkolik va halollik evaziga topiladi



Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

universitetiga qarab yo'l oldim. Ta'lim muassasining ko'chadan kiraverishi dabbalabi bezatilgan, ichkarida orkestr musiqacha chalyapti. To'rdagi sahna o'nab chiroqlar yorug'ida joziba kasb etgan. Bu yerga kecha "qahramoni"ni olib chiqishga kerak. Yangilikdan bexabar qolmay deb kelgan mehmonlar anchagina, orasida hamkasblarimiz ham bor. Ularning davrasiga qo'shildim. Soat belgilangan vaqtdan o'tib ketdi hamki, taqdimot boshlanay barmadi. Hamrohlarim bilan "Qorong'i tushishini kutishyapti", "Yo'q, kattakonlar kelsa, keyin boshlashadi" kabi taxminlarni muhokama qilishga kirishib ketdik.

Bir payt g'ala-g'ovur kuchaydi, bo'ydor, rasmiy kiyingan 3-4 yigit odamlar orasidan minbar tomon yo'l ocha boshladi. 5-6 chog'li kishi o'sha yo'lakdan o'tib, sahnaga ko'tarildi. Boshlovchi viqor bilan turgan shaxslarni tanishtirdi — bitta xorijlik mehmon, 2 tasi soha mutasaddisi va bittasi uyushmaning eng kattasi ekan. Bu kattaning ism-familiyasini eshitgandim, ammo o'zini endi ko'rishim edi. Darhol fotoapparatni olib, suratga tushira boshladim. Axir qarshimda kimsan — Falonchi Falonchiyev! Birov tirsagimdan ushlagandek bo'ldi.

— Kechirasiz, sizni bir minutga muximkim? Buzuq talaffuzda gapirgan yosh xodim meni chekkaga tortdi.

— Tinchlikmi? — so'radim nima bo'layotganini anglamay.

— Siz kimsiz, hujjatlaringiz bormi, qayerdanziz? — yigitcha savolimga savollarni qalashitirib tashladi. Gaplari tahdidli, ohangida rasmiy tush hukmron. U tergovchi, men katta jinoyat ustida qo'lga tushgan ashaddiy jinoyatchi edim go'yo. O'zinni tanishtirdim.

fotoapparatdan tushirgan suratlarim o'chirib tashlanishi bilan yakun topdi. Keyin sal narida holatni kuzatib turgan tanish professional fotomuxbir akamiz yonimga kelib, dalda bergan bo'ldi:

— Bizda shunaqa, arboblarni suratga olish mumkin emas, ular matbuotdan qo'rqadi. Siz fotograf emassiz-da, ko'nikib ketasiz hali...

Yuqoridagilar kechagi gap, o'tmish, ortda qolgan tarix. Endi bugun haqida.

Darvoqe, hamkasb akamiz aytgan holatga ko'nikib ketmadim, aniqrog'i, bunga ulgurmadim. Zamon o'zgardi, qarashlar, OAVga munosabat tubdan ijobiy tomonga yuz tutdi. Bugun hamma muxbir, blogger, jurnalist, fotograf. Hammaning yelkasida fotoapparat bo'lmasa ham qo'lida telefoni bor. Istalgan jurnalist istalgan vazir, qo'mita raisi, davlat agentligi direktori, viloyat yo shahar hokimi, bank boshqaruvchisi, oliy ta'lim muassasasi rektori, katta-kichik uyushmalar rahbarlari bilan erkin muloqot qilaypti. Ularni suratga o'lyaptigina emas, birga suratga ham tushyapti, yo'l-yo'lakay mikrofon tutib, intervyu so'rayapti, xato-kamchiliklari yuzasidan savollar beryapti. Bir dasturxon atrofida tushlik qilib, sport musobaqalarida bellashyapti.

Bular yaqin 7-10 yil avval orzu emasidimi? Reallikka aylangan orzular ro'yogiba mamlakatimizda yaratilgan huquqiy asos o'z bo'layotgani ham bor gap. O'zbekistonda kechayotgan islohotlar bunga izn beryapti. Davlat bugun har qanday jamiyat taraqqiyotini so'z erkinligisiz tasavvur etish mumkin emasligini anglamog'da. Shunga yarasha sharoitlar muhayyo etilyapti. So'z va axborot erkinligi milliy qonunlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar tomonidan dunyo miqyosida qabul qilingan huquqiy hujjatlar va tan olingan universal shartnomalarda aksini topmog'da.

Bugun yurtimizda matbuotga e'tibor har qachongidan yuqori. Bu borada qator qonunchilik normalari, jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni g'oyat muhim ahamiyatga ega. Hujjat davlat organlari va tashkilotlari faoliyati ochiqligi va shaffofligiga erishishning yangi bosqichini boshlab berdi,

Jurnalistika — zahmatli mehnat, faoliyat. Bu zahmat bir umr davom etadi. Zamonlar o'zgartirani sari matbuot oldida yangi yangi vazifalar paydo bo'ladi. Har bir chiqishida ohorli so'z aytish, mushtariy ong-shuuriga ta'sir ko'rsatish, yangi fikr va g'oyalarni shakllantirish esa oson ish emas.

axborot olish erkinligini ta'minlash orqali jamoatchilik nazoratini takomillashtirish borasida dadil qadamlar qo'yish uchun huquqiy asos vazifasini o'tamog'ga.

Shuningdek, o'tgan yili yangilangan Bosh qonunimizda ushbu yo'nalishdagi konstitutsiyaviy qoidalar yanada mustahkamlab qo'yilgani yurtimizda bu boradagi sa'y-harakatlar bardavom ekanidan dalolat. Ayni sabab OAV bugun xalq ovozi, tom ma'noda "to'rtinchi hokimiyat"ga aylani bormog'ga. Balki kimlarningdir nazdida hali qadamlarimiz salmog'i kutilganidek katta emasdir, lekin siljishlarni inkor qilib bo'lmaydi.

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori jurnalistikamizda to'planib qolgan bir qancha muammolarni qamrab olgani bilan e'tiborga molik bo'ldi.

Qarorda jurnalistlar o'rtasida har yili an'anaviy o'tkazib kelinayotgan va aynan 3-may — Jahon matbuoti erkinligi kuni g'oliblari anqlanadigan "Oltin qalam" milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovni demokratik tamoyillar asosida yanada ochiq hamda shaffoflik bilan o'tkazishga e'tibor qaratilishi qayd etilgan. 2023-yildan boshlab tanlovning bosh mukofoti uchun avtomobil, birinchi o'rin uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari, ikkinchi o'rin uchun 175 baravari, uchinchi o'rin uchun 150 baravari, 12 ta rag'batlantiruvchi nominatsiyaning har biri uchun 100 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti berilishi belgilangan.

BMT Inson huquqlari komissiyasi e'tirofiga ko'ra, so'z erkinligi — inson rivojlanishining ajralmas omili. Insonning haq-huquqlari, manfaatlarini demokratiyasiz, so'z va matbuot erkinligisiz to'la ta'minlab bo'lmaydi. So'z erkinligi, matbuot erkinligini demokratiyaning hayotbaxsh qon tomiri, sarchashmasiga mengzash mumkin.

Ta'kidlaganimizdek, yurtimizda ham bu omil siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylandi. Davlatimiz rahbari bir chiqishida: "Achiqchilik va tanqidiy materiallar joylardagi ko'plab amaldorlarga yoqmasligi, ularning tinchini va halovatini buzayotgani ham bor gap. Lekin oshkorlik va so'z erkinligi bu — davr talabi, bu — O'zbekistondagi islohotlarning talabi", deya ommaviy axborot vositalari xodimlariga qatn bergan edi.

Bugun axborotni yashirib bo'lmaydi. Bir joyda yashirilsa, albatta, boshqa joylarda chiqadi. Axborot bugun erkin aylanyapti va bu so'z erkinligi bilan bevosita bog'liq. Odamlar matbuot orqali o'z fikrini erkin bildirmog'ga. Ularni davlat organlari eshitishi kerak. O'z faoliyatini tanqidlar orqali talil qilib, mavjud muammolarni hal etish choralarni ko'rish, mulotoqta o'rganishi lozim.

So'nggi yillar yurtimizda so'z erkinligini ta'minlash, erkin fikr yuritish uchun huquqiy kuchaytirish, bloggerik mavqei ko'tarish, barcha toifadagi ommaviy axborot vositalari xodimlarini himoya qilish borasida bir qancha amaliy ishlar qilindi. Natijada faol matbuot xalq orasida tobora hurmat-e'tibor qozonib, "to'rtinchi hokimiyat" darajasiga ko'tarilib bormog'ga. Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda qanday yangilik paydo bo'lmagan, turli munozarali bahslar, fikrlar, tortishuvlar ko'rinishida ushbu axborotga munosabat bildirilmoqda. Bu ham yurtimiz ommaviy axborot vositalari va fuqarolarimizning faollashib borayotganini ko'rsatadi.

"Matbuot fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ong-u-shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmog'i lozim". Milliy matbuotimizning tamal toshini qo'yan jadid bobolarimizning ushbu fikrlari hozirgi kunimiz uchun ham g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Zamonamizda bilan mediamakonda turli qarashlar, mulohazalar, munosabatlar aylanadi. Shulardan biri bosma nashrlar haqidagi turli gap-so'zlaridir. Gazeta va jumalalar elektron matbuot sohasida qolib ketadi, deya iddao qiluvchilar ham, buni inkor etuvchilar ham bir narsada sobitdirilar. Ya'ni matbuot erkinligi — so'z, shaxs, vijdon erkinligi singari siyosiy huquq. U matbuotning erkin faoliyat ko'rsatishini, kishilarning matbuotda fikr va tuyg'ularini to'siqsiz ayta olishini ifodalaydi.

Insoniyat dunyoqarashi kengayishida ommaviy axborot vositalari, xususan, matbuotning o'rni beqiyos. U orqali insonlar dunyo yangiliklaridan xabardor. Gazeta va jumalalar, so'ng OAVning radio, televideniye kabi turlari, ayniqsa, internet paydo bo'lgach, insoniyat ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgardi. Ulardan to'g'ri foydalanish va axborotni tahlil qilish esa kishidan mustaqil fikr, bilim va tafakkurni talab etadi.

Yuqorida eslaganimiz iddaolar uchigan, jurnalist-u bloggerlar orasida dahanaki jang avjiga chiqqan o'sha kezlarda yozuvchi, filologiya fanlari doktori, professor Xurshid Do'stimuhammadning "Yangi O'zbekiston" gazetasida juda chiroyli va samimiy maqolasini e'lon qildik. Unda, jumladan, bunday bitiklar bor:

"Ayrim ziyolilarimizning "Gazeta o'z vazifasini o'tab bo'ldi, unga ehtiyoj qolmadi" degan agidasini ochiq-oshkor aytishlari ham jamiyatimizda qaror topayotgan so'z hurli "mevasi", o'z xisa xo'yangilik. Avvalo, fikr va so'z erkinligiga daxl ko'rsatishdan yiroqim. Lekin o'z ma'naviy dunyosining g'aribligi, intellektual zaiflik ifodasi o'laroq qilinayotgan hasrat o'rmda talqin etish mumkin bo'lgan bu singari izhorlarni e'tiborsiz qoldirish gumanistik g'oyalarga zid deb o'ylaymiz. Bot-bot eslatishga burchlimiz: gazeta o'z umrini o'tab bo'ldi, degan so'z kitob o'z umrini o'tab bo'ldi, deganidir! Non yemay ham yashash mumkin, deganidir! Yuz yillar mobaynida ta'lim-tarbiya bergan ustoz muallimdan yuz o'g'irish demakdir!

Gazeta ham — zar, zarning qadrini esa zargar biladi. Bir o'lmas haqiqatni takrorlashdan tolmaymiz: elektron nashrlarning mo'jizalarga boy imkoniyatlari nechog'liq e'tirof etilmagan, ularning hech biri bosma nashrlar salmog'i o'rmini bosmaydi, bosolmaydi. Axborot turli manbalardan olinishi mumkin, fikr-tafakkur esa gazetadan — bevosita mutolaa orqali olinadi. Ijtimoiy fikr gazeta orqali chaxrlanadi, boyitiladi, kamolga yetadi. Gazeta tarixiy solnomna sifatida yuz yildan keyin ham ko'zga surtib o'qiladi".

Maqola hamkasblarimiz orasida keng muhokamalarga sabab bo'ldi, go'yo qorong'ilikka nur indi. Hatto ayrim internet saytlarida ham berildi. Shundan so'ng bahs-munozaralar shiddati biroz pasayandek bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda shakllanayotgan, toblanayotgan yangi jurnalistika, yangi matbuot va yangi jurnalistlar avlodi hayot va zamon ko'ndalang qo'yayotgan har qanday muammoning oqilona yechimini topishga qodir. Zero, matbuot va jurnalistika — matonatililar, topqirlar, zukkoliklar maydoni!

Jurnalist kadrlar yetishtirib beradigan oliy ta'lim dargohlarida talaba yoshlarimiz bosma ommaviy axborot vositalari va noshirlik ishi, audiovizual jurnalistika, internet jurnalistikasi va menejment, media nazariyasi va amaliyoti, harbiy va sport jurnalistikasi, raqamli media, xalqaro munosabatlar singari yigirmadan ziyod ta'lim yo'nalishi bo'yicha yuqori malakali professor-o'qituvchilardan mahorat sirlarini o'rganmog'ga.

Buguning jurnalisti so'zi o'kirligi barobarida professional malakasini, tajribasini oshirib borishi shart. Zero, endi faqat matn bilan o'quvchi qalbin zabt etib bo'lmaydi. Foto, video, audio imkoniyatlaridan foydalanish, qisqacha aytganda, mediakongressiyani qo'llash talab etiladi. Hozir o'quvchining, tomoshabinning vaqti zi q. Ayni paytda soha vakillari shunga tayyorlanishi kerak, buning uchun esa ular o'z ustida timisiz ishlashi, muntazam izlanishiga to'g'ri keladi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yili Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni g'oliblari tabrigida "Biz yangi O'zbekistonning yangi jurnalistikasini yaratish vazifasini o'z oldimizga qo'yan ekanimiz, bu boradagi milliy an'analarimiz bilan birga rivojlangan davlatlar tajribasini ham bor tomonlarga o'rganishimiz, ommaviy axborot vositalari bo'yicha dunyodagi yetakchi oliygohlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va media kompaniyalar bilan hamkorlik aloqalarini yanada kuchaytirishimizni hayotning o'zi talab etmog'ga", deb alohida ta'kidlagan edi.

Bizda milliy matbuotimizning o'z bayrami bor. 27-iyun — Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni yurtimizda keng nishonlanadi. Shu bilan birga, dunyo hamjamiyatida o'z o'rni g'aga mamlakat sifatida 3-may sanasi munosabati bilan ham faoliyatimizni, erishgan natija va kelgusi rejalarimizni tahlil qilamiz.

Yurtimizda 2 mingdan ziyod ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmog'ga. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ham matbuotning roli va jurnalistik kasbiy faoliyati himoyasini yanada kuchaytirish, odamlarni qiyinayotgan muammolarni hamda islohotlarning ijrosi ahvoliini o'rganishida ijod ahli mehnatidan samarali foydalanishi ko'zda tutilgan.

Hozir dunyoda axborotlashuv jarayonlarining tahdidli jihatlari ham mavjud va ular tobora kuchayib bormog'ga. Ayrim mintaq va hududlarda matbuot muayyan siyosiy kuchlar qo'lida axboriy urushni avj oldirishga, jamoatchilik fikrini chalg'itishga xizmat qilayotgani achenarlidir. Bugungi murakkab vaziyatda axborot makonidagi ustunlik ko'p narsani hal etadi.

Jurnalistika — zahmatli mehnat, faoliyat. Bu zahmat bir umr davom etadi. Zamonlar o'zgartirani sari matbuot oldida yangi yangi vazifalar paydo bo'ladi. Har bir chiqishida ohorli so'z aytish, mushtariy ong-shuuriga ta'sir ko'rsatish, yangi fikr va g'oyalarni shakllantirish esa oson ish emas.

JAMIYATNING HAR BIR A'ZOSIGA TAALLUQLI JARAYON

Nozima MURATOVA, O'ZJOKU prorektori, filologiya fanlari doktori

Germaniyaning eng yirik media tashkilotlaridan biri bo'lgan Deutsche Welle Academy ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 100 dan ortiq tashkilot ommaviy axborot vositalari erkinligini baholash va o'z natijalarini targ'ib qilish bilan shug'ullanadi. Ularning katta qismi nodavlat notijorat tashkilotlar bo'lib, o'zini o'zi moliyalashtirish va targ'ibot asosida faoliyat yuritadi. Bunday tashkilotlar veb-saytini o'rganish natijasi shuni ko'rsatadiki, ular, birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalari mustaqilligini qo'llab-

quvvatlash, so'z erkinligining buzilish holatini kuzatish, indekslar orqali mediatizmlarni baholash, jurnalistlarni himoya qilish va turli mojaro hududida ishlayotgan reportyorlarga yordam berish kabilarini nazarda tutadi.

O'zbekiston siyosati ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning so'z erkinligini mustahkamlashga qaratilgan. Mamlakatda 2 mingdan ziyod OAV mavjud. Onlayn nashrlar sahifalari, telekanal va radiokanalalar efrida bugun tanqidiy materiallar, ijtimoiy dolzarb masalalar ko'tarilgan ko'rsatuv, tok-shou va eshittirishlar tobora ortayotganini ko'rish mumkin.

Tezkorlik oshmog'ga. Tahririyatlardagi ijodiy jamoa safiga yosh jurnalistlar avlodi qo'shilmog'ga. Mana shunday mutaxassislarni tayyorlashda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida ham muayyan ishlar qilinaypti, mamlakatimizdagi so'z erkinligini ilmiy jihatdan o'rganish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Yosh doktorant va tadqiqotchilarimiz so'z erkinligini yanada mustahkamlashga doir chora-tadbirlar va muammolarni o'rganmog'ga. Jarayonning huquqiy tomonlarini tadqiq qilmog'ga. Bu faoliyat 2024-yilda boshlandi, yaqin orada natijasi jamoatchilikka taqdim etiladi.



So'z erkinligini ta'minlashda uni ilmiy tadqiq etish, mezonlarini xolisona o'rganish, bu tushunchaning shaxsiy manfaat

yo'lida ishlatilmasligini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega. Ayni paytda jurnalistlarning axborot manbalari bilan izchil ishlashidagi

zarurat ortmog'ga. Axborot maydonida dezinformatsiya, yolg'on ma'lumot keng tarqalayotgan davrda yashayotganimiz bois, bugun onlayn muhitda, virtual makonda so'z erkinligini ta'minlash bilan bog'liq yangi chaqiriqlar yuzaga kelmog'ga. Buni ham inobatga olmaslik, nazarda tutmaslik mumkin emas. Fikr bildirish jarayonida xolislikni ta'minlash uchun kasbiy me'yorlarning ishlab chiqilishi va rioya etilishiga erishish har bir jamiyat uchun muhim. Yangilanayotgan axborot muhitida noto'g'ri talqindagi ma'lumotlar oqimi ta'siriga tushib qolmaslik, ochiq ma'lumotlar sharoitida axborotni to'g'ri, xolis, tanqidiy tahlil qila olish oldimizdagi muhim vazifa.

Qolaversa, so'z erkinligini ta'minlash jamiyatning har bir a'zosi g'aga taalluqli jarayon bo'lib, mediasavodxonlik darajasini ko'tarish ham zimmamizga yana bir vazifa yuklaydi. Zero, OAV vaqtimizning salmoqli qismini egallayotgan davrda yashayotgan ekanimiz, olayotgan axborotimizni saralash, to'g'ri qo'llash uchun media sohasidagi bilimlarni oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

Yana bir jihatga alohida urg'u berish zarur. So'z erkinligi nima ekani, bu tushuncha mohiyatini jurnalist va bloggerlarimiz, umuman, axborot bilan ishlaydigan har bir yurtodoshimiz chuqur anglab, tushunib olishi lozim. Chunki har bir fuqaroning so'z erkinligi bilan bog'liq huquq va majburiyati mavjud. Buni tan olish va qonunchilikka rioya etish ham zamon talabi.



9-may — Xotira va qadrlash kuni

MATONAT SABOG'I

Tinchlikning qadriga yetib, farovon hayotimizga shukrona aytishimiz kerak

Mo'jaz hovli, tomorqada ekilgan anvoyi gullar, yozda soyasi mevasidan bahramand etadigan daraxtlar, ko'rkam manzara. Ko'chadan kelayotgan bolalar shovqini so'rida xayol surib o'tirgan Pirnazar boboning tinchini buzdi. Hassasini olib, darvoza tomon yurdi. Bolalarning subhatini eshitib, sergak tortdi.



— Birinchi bo'lib men otdim, sen o'lmading. — Yo'q, men birinchi otdim. Men seni ko'rdim, — derdi ikkinchisi. — Unda qatnadan boshlaymiz, — shovqinga aralashdi uchinchisi. — Faqat otgandan o'lish kerak. G'irromlik ketmaydi. Pirnazar bobo bolalarning gap-so'zidan ularning "urush-urush" o'ynayotganini angladi. — Urushning oti o'chsin, — dedi pichirlab. So'ng so'riga qaytdi. Ko'z oldida urush xotiralari gavdalandi. U kunlarni, o'q yomg'iri ostida o'tgan yillarni eslashning o'zi naqadar og'ir!..

Urush ostonasida

— 1942-yili harbiy komissariatda men bilan birga 96 o'smirlar harbiy kiyim berib, frontga jo'natildi, — deya eslaydi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, karmanalik 104 yoshli Pirnazar bobo Turdiyev. — Rossiyaning Penza viloyatida harbiy tayyorgarlikdan o'tdik. Stalingrad jangiga yuborishganida urush nimaligini bildim, naqadar dahshatligini his qildim.

Yer qattiq tiraydi. Portlashlar zamin bag'rini qo'porib, xandaqqa aylantiradi. Ko'z o'ngimda shahar vayron, safdoshlarimiz halok bo'ldi. Bu manzaralar ilk bor jangga kirayotgan men kabi yangi askarlar uchun juda og'ir va dahshat edi. Okopda turib his qildimki, bu yer men tug'ilib o'sgan qishloq



emas, jang maydoni, kim tirik qolishini hech kim bilmaydi.

Qurshovda non qadri

— Belarus o'rmonlarida kechgan jangda qurshovda qolib ketdik. Dushman tinimsiz hujum qilardi. O'rmon chetiga yashirindik. Oziq-ovqat deyarli tugagan. Hech qanday najot yo'q. Qurshovning ikkinchi kuni o'zimizning samolyotlar ko'rindi. Xavfli bo'lsa-da, olov yoqdik. Samolyotlardan biri pastlab, xaltada bo'lka non tashlab ketdi. Askarlar bir-birini surib, xaltaga yopishdi. Ochlik tufayli nonni

taqsimlash hech kimning xayoliga kelmadi. Kim kuchli bo'lsa, o'sha oladi, — deya subhatni davom ettiradi Pirnazar bobo. — Yaqinda bir filmda asirlikdagi o'zbeklarning bita nonni taqsimlab yeganini ko'rdim. Jang maydonida turli millat vakillari bilan bu borada muvazana qilish qiyin. Tunda komandirimiz buyrug'i bilan qurshovni yorib, to'pchilarimiz joylashgan tomonga harakatlana boshladik. Chunki boshqa

ilojimiz yo'q edi. O'rmon ichida ochlikdan o'lgandan ko'ra tirik qolishga harakat qilib, jangga kirish eng ma'qul yo'l edi. Bir-ikki kunda o'zimizning qismiga qo'shilishga muvaffaq bo'ldik. Qanday qiyinchilik janglar evaziga qurshovdan chiqqanimiz o'zimizga ayon. Aytmoqchi bo'lganim, o'shanda bir burda non qadriini bilganman. Bunday kunlarni hech kimga ravo ko'rman.

Bugungi tinchlik-osoyishtalarning qadriga yetishimiz, farovon hayotimizga shukrona aytishimiz kerak. Gohida dabdabali marosimlar va ma'rakalarda isrof bo'layotgan noz-ne'matlar, taomlarni ko'rganimda qurshovda qolib, ochlikdan non solingan xaltalarga yopishayotgan askarlar ko'z oldimga keladi.

Frontda Halima Nosirova

— Bir necha marta yaralanib, gospitallarda davolandim. Bir safar Gomel gospitalidagimda san'atkorlar kelayotganini xabar qildim. Ularning O'zbekistondan ekanini eshitib, juda xursand bo'ldim. Hamman oldin konsert qo'yiladigan maydonga bordim. Kichik sahna ortiga milliyimiz ufurib turgan so'zanalari tortilgan, sozanda yigitlar chopon kiygan, boshda esa do'ppimiz. Ayollarning egida atlas ko'yaklar, sochi mayda o'rilib, do'ppi kiygan.

Konsertda o'zbekcha qo'shiqlarni miriqib tingladik. Sahnaga Halima Nosirova chiqqani eng esda qolarli bo'ldi. U qo'shiq kuyildi, raqsida esa Tamaraxonim. O'shandagi hissiyotimni so'z bilan ifodalashim qiyin. Qo'shiq tinglayapman-u, ko'nglim to'lib, ko'zimdan tinmay yosh oqadi. Bu Vatani sog'inchi, yurtga muhabbat hissi edi.

Ikki marta "o'lgan" jangchi

— Ikkinchi Belarus frontida jang qildim. Poltava, Kursk, Oryol, Gomel yerlaridan fashistlarni quvib chiqardik. Navbat Polsha hududiga keldi. Undan o'tib, Germaniyada g'alaba bayrog'ini oldik. 1946-yili esa dushmaning Litvadagi oxirgi qismlarini yakson qildik. Vatanga muhabbat, ota-onam duosi katta yordam berdi. Peshonamda yashash bor ekan, 1946-yilning bahorida yurga qaytdim. Uyg kelganimda yaqinlarim tirikligimga ishonmagan. Sababi, urush yillari meni halok bo'ldi, deb qishlog'imizga ikki marta "qoraxat" kelgan. Bu ota-onam uchun juda og'ir bo'lgan.

Urush tugab, poyezdda uyga qaytdim. Yarim tunda poyezddan tushib, kech bo'lgani uchun vokzal yaqinida yashaydigan Xo'siyat ammanning uyiga borib, darvozasini taqillatdim. Amman "Pirnazar urushda o'lgan, undan "qoraxat" kelgan", deya ishonmay darvozani ochmagan. Sababi, o'ziga yarascha qiyinchilik yillari edi, birorta o'g'ri aldayapti, deb o'yilgan. Yonidagi xonadonda Xudoyberdi



tog'am yashardi, ovozimizni eshitib, bizga peshvoz chiqqan. Otam ham tezda tog'amnikiga yetib kelgan. Ertasiga aravada uyga qaytdik. Bu "qoraxat" qanchadan qancha uylarda dod-faryodlarga sabab bo'lgan.

Safdoshlar yodi

— Ikkinchi jahon urushiga Karmana tumanidan ketgan yigitlarning 1200 dan ziyodi qaytib kelmagan. 200 ga yaqini bedarak ketgan. Tirik qaytib kelganlar hayotini yo'lgaga qo'ydi. Oila qurib, turli sohalarda ishladi. Ular bilan tez-tez ko'rishib turar edik. Har safar uchrashganimizda imkon boricha urush haqida suhbatlashmaslikka harakat qilardik. Har bir eslash bitmas yaranim tirash bilan barobar edi. O'sha azobni his qilmaslik uchun imkon boricha og'ir damlarni eslamasdik. Urushdan qaytgan karmanalıklar orasida faqat men qoldim. Qolganlar bu olamni tark etdi. Ularni doim yod etib turaman.

Shukronalikka undaydigan gurunlar

Inson baxtli o'tgan kunlarini hayajon va quvonch bilan yodga oladi. Har gal o'sha damlar esga tushganida dili yayraydi, yuzida tabassum aks etadi. Biroq shunday xotiralar borki, ular haqida o'yash kishini dahshatga soladi. Yilda bir bor eski jarohat qalbgana og'ir botadi. Bu — urush xotiralari. Ularni eslamaslikning iloji yo'q. Chunki bugungi kunlar qadriini anglash uchun ham yo'lda jon fido etganlarni yodga olish muhim.

Ayni vaqtda 104 yoshni qarshi olgan Pirnazar bobo farzandlari, nevara-chevaralari, evaralari ardog'ida keksalik gashтини surmoqda. Shu yoshda ham bobo tomorqasidagi uncha-muncha yumushni bajardir.

Boboning xonadoni doim gavjum. Har yili Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan otaxon xonadoniga keladiganlar yanada ko'paydi. Yoshligida yurt tinchligi uchun qalqon bo'lgan, Vatanim ozod ko'rish istagida shahid ketgan tengqurlari orzusini ham amalga oshirgan nuroniyatida bo'lish bugun Pirnazar Turdiyev qalbin cheksiz g'uruga to'ldiradi. O'tmishdagi qiyinchilik, ozurlari bir olam bo'lgan yigitlar taqdiri, urushga o'tanish mas'uliyati, Vatani himoya qilishdek qat'iyat, dushmanlarga ro'baro' kelishdan qo'rqmaslik shahidi. Pirnazar Turdiyev bilan suhbat har gal hayot va o'lim orasidagi qadam, erta xazon bo'lgan yosh umrlar, onalar, opa-singillarning ko'z yoshiga, yurtini himoya qilishga ketib, qaytmagan minglab o'g'lonlar xususida bo'ladi. Bunday muloqotdan so'ng urush dahshatini tasavvur qilish qiyin emas. O'z navbatida, bu esdaliklar yosh avlod uchun o'tmishdan saboq va ibrat maktabidir.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Festival

Shu kunlarda Surxon vohasi yirik xalqaro tadbirga mezbonlik qilmoqda. Madaniyat vazirligi, Turizm qo'mitasi hamda Surxondaryo viloyati hokimligi hamkorligida Boysun tumanidagi turizm majmuasida "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali o'tkazilyapti. Nufuzli tadbirda 40 dan ortiq davlatdan 150 ga yaqin delegatsiya a'zolari va xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etyapti. Rossiya, Xitoy, Yaponiya, Belarus, Tailand, Germaniya kabi 16 davlatdan mashhur folklor jamoalari ishtiroki rejalashtirilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi "Boysun bahori" xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, festival oltinchi marta tashkil etildi. Shundan so'ng xalqaro festival UNESCO shafeligida har 2 yilda bir marta o'tkazilishi belgilandi.

"Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi" ro'yxatiga kiritilgan festivalning xalqaro darajadagi ahamiyatini inobatga olib, tayyorgarlik ishlari o'tgan yildan boshlangan edi. Shu maqsadda so'lim tog' qo'ynidagi Bibishirin mahallasida umumiy qiymati 47 milliard so'mlik zamonaviy turistik maskan barpo etildi. Besh qavatli to'rt yulduzli muhtasham mehmonxona, yirik sahna, amfiteatr, viloyatlar qo'rg'oni uchun joy, etnosport maydonchalari va boshqa infratuzilma inshootlari qad rostlandi. O'tovlar hamda Termiz shahri, tumanlar va viloyat tashkilotlarining qo'rg'onlari o'rnatildi. Bu yil yetinchi marta tashkil etilayotgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali tamomila yangicha shukuh va uslubda boshlandi.

— Bu yerga madaniyatning ko'rish uchun keldim. Boysun insoniyatning eng qadimiy beshliklaridan biri bo'lgan joy.

Shuning uchun ham bu yerni tanladim. Bunday katta festivalda ishtirok etish, folklor jamoalarining chiqishlarini kuzatish menga zavq bag'ishlaydi, — deydi germaniyalik sayyoh Taher Neyef. — Chunki folklor millatning o'ziga xos qadriyat va an'analarini tarannum etadi. Dunyoning ko'plab davlatlarida o'tkazilgan folklor tadbirlarida ishtirok etganman. Lekin bu festival butunlay boshqacha. Hammasi tabiiy va uyg'un: tabiat, qadriyat, kuy. Odamlar uchun musiqa va kuy-qo'shiqlar umumiy til sanaladi. Shuning uchun ham xalqlarning milliy madaniyati insonlarni, ellarni birlashtiradi.

Xalqaro festival doirasida Termiz davlat universitetida xorijlik va mahalliy olimlar, san'atkorlar va faxriy mehmonlar ishtirokida "Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o'rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari" mavzusidagi konferensiya bo'lib o'tdi. — Kuzatishimcha, bu yilgi festival tamomila yangicha shukuh va uslubda o'tkazilmoqda. Buni xalqaro konferensiyaning salmog'idan ham bilish mumkin. Tadbirda 50 dan ortiq davlatdan vakillar onlayn va oflayn formata mavzuga doir ma'ruzalar

HAYRATLAR O'LKASIDA bahor shukuhi



bilan qatnashyapti, — deydi Termiz davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori Toshkenboy Pardayev. — Bu ham tadbirning ko'lami va miqyosini belgilab beradi.

Amjumanda "Surxondaryo — buyuk tamaddun beshigi", "O'rta asrlarda Surxon vohasining moddiy va nomoddiy madaniyati", "Voha aholisining nomoddiy madaniyatida an'anaviylik va zamonaviy ko'rinishlari", "Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy

taraqqiyoti" shu balarida olimlar va yosh tadqiqotchilar maqolalari bilan ishtirok etdi.

— Bu noyob va nafis san'at bayrami ishtirokchilarida uzoq o'tmishdan so'zlaydigan arxeologik yodgorliklar — paleolit davriga oid insoniyat beshigi sanalmish Teshiktosh, Amir

Temur g'ori, 65 million yillik dinovavrilar izi, ikki ming yil muqaddam muhim istehkom, strategik inshoot vazifasini bajargan Uzundara, Qo'rg'onzal, Tumanqo'rg'on singari arxeologik yodgorliklarga sayohat uyushtirib,

dunyoda tamaddun haqidagi bilim va taassurotni boyitish imkoni bor, — deydi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, tarix fanlari doktori Mirodiddin Mirsodiq Is'hoqov.

Festivalning ochilish marosimi kuni kecha Boysun tumanidagi amfiteatrdan bo'lib o'tdi. Taniqli san'atkorlar hamda folklor jamoalari ishtirokidagi madaniy tadbir milliy soz va liboslar, taomlar, hunarmandlik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari ko'rgazmalari, dronlar shousi, etnosport

bellashuviga ulanib ketdi. Shuningdek, ko'pkari, kurash, tosh ko'tarish, arqon tortish, xo'roz urishtirish, varrak sayli kabi xalq o'yinlari ham tashkil etildi.

— "Boysun bahori" folklor festivali — xalqaro do'stlik aloqalari ramzi, — deydi fransiyalik sayyoh Joanna Luiller. — Festival ishtirokchisi sifatida turli millat vakillari bilan tog' bag'rida joylashgan so'lim Boysunning musaffo havosidan to'yib-to'yib nafas oldik. Boy tabiat manzaralaridan, shifobaxsh g'iyohlar iforidan huzurlandik. Mato, gilam to'qish, kashtachilik, do'ppido'zlik, chanqovuz, do'mbira, sibzig'a, nay yashash kabi xalq amaliy san'atidan bahramand bo'ldik.

Tadbir doirasida folklor, milliy o'yinlar va tomosha san'ati bo'yicha xalqaro ko'rik-tanlov tashkil etildi. Bellashuvda 1-o'rinni egallagan jamoa 3500, 2-o'rinni sohiblari 2500 va 3-o'rinni qo'lga kiritganlar 1500 AQSH dollari pul mukofoti va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi. Shuningdek, sovrindorlarga maxsus diplom, sertifikat va xalqaro festival statuetkasi topshiriladi.

Festival kunlari qiziqarli konsert dasturlari namoyish etiladi. Mahalliy va xorijlik sayyohlar uchun Boysunning qadimiy turizm maskanlariga sayohatlar uyushtiriladi. Jumladan, ishtirokchilar bir asrlik tarixga ega Sayrob chinorlari, "Omonxon", "Ko'jamayxon" shifobaxsh suvi, sirli baliqlar, Tangisar qizil kanyon, sayyoramizdagi eng chuqur g'orlardan biri — Boysuntog' tizmasida joylashgan 2651 metr uzunlikdagi "Qora yulduz" g'orini ko'rish imkoniga ega bo'ladi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasini

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1459.

Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Musahhah: Asliddin Abdurazzaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy